



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL’A TUMAN KENGASHI QARORI

Tuproqqal’a tuman “Yoshlik” mahallasi Komiljon Otaniyozov ko‘chasi, 1-uy

2022 - yil 27 - yanvar

VI-51-10-12-218-K/22

Tuproqqal'a tumani hokimligi

Xorazm viloyati Tuproqqal’a tumani mahalliy budjetining 2021-yil yillik ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2020-yil 25-dekabrda O‘RQ-657-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonuni va Xalq deputatlari Tuproqqal’a tuman Kengashining “Tuproqqal’a tumanining 2021-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2020-yil 31-dekabrda 25/1-sonli qarori bilan tuman mahalliy budjeti **xarajat ko‘rsatkichlari 49 941,8 mln.so‘m va daromad ko‘rsatkichlari 47 218,5 mln.so‘m** qilib belgilab berilgan.

Shuningdek, quyidagi soliq va tushumlar tuman mahalliy budjetida qoladigan daromadlar hisoblanib, tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me‘yori quyidagi miqdorlarda taqsimlangan:

tuman mahalliy budjetiga **100 foiz** yo‘naltirilgan soliqlar,

- *aylanmadan soliq;*
- *yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliq;*
- *aksiz solig‘i, jumladan benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq;*
- *yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;*
- *yuridik shaxslarning yer solig‘i;*
- *jismoniy shaxslardan olinadigan yer soliq;*
- *yer qaridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari);*
- *suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.*

tuman mahalliy budjetiga **50 foiz** yo‘naltirilgan soliqlar,

- *jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliq.*

Tuman mahalliy budjet daromadlarining 2021-yil 12-oylik tasdiqlangan prognoz rejasi 47 218,5 mln.so‘m, kiritilgan o‘zgartirishlardan keyin aniqlangan prognoz rejasi 43 264,3 mln.so‘m qilib belgilangan, mahalliy budjetga haqiqatda tushgan daromad 52 234,4 mln.so‘m bo‘lib, rejaga nisbatan 8 970,1 mln.so‘mga (120,7%) ortig‘i bilan bajarildi.

Shuningdek tuman mahalliy budjet daromadlarining 2021-yil 4-chorak aniqlangan prognoz rejasi 12 612,5 mln.so‘m qilib belgilangan bolsa, mahalliy budjetga haqiqatda tushgan daromad 14 866,0 mln.so‘m bo‘lib, rejaga nisbatan 2 253,5 mln.so‘mga (117,9%) ortig‘i bilan bajarildi.

Tuman mahalliy budjeti xarajatlarining 2021-yilning 12-oylik tasdiqlangan rejasi 49 941,8 mln.so‘m, kiritilgan o‘zgartirishlardan keyin aniqlangan rejasi 102 121,8 mln.so‘m bo‘lib, haqiqatda qilingan qassa xarajatlar 87 523,5 mln.so‘m, rejaga nisbatan 14 598,3 mln.so‘mga (14,3%) kam bajarildi. Jumladan:

1-guruh xarajatlar (ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar)ning aniqlangan rejasi 38 729,7 mln.so‘m bo‘lib, haqiqatda 38 698,5 mln.so‘mga, rejaga nisbatan 31,2 mln so‘mga (0,1%) kam bajarildi;

2-guruh xarajatlari (ijtimoiy soliq to‘lovi) aniqlangan rejasi 7 305,7 mln.so‘m bo‘lib, haqiqatda 7 304,8 mln.so‘mga, rejaga nisbatan 0,9 mln.so‘mga kam bajarildi;

3-guruh xarajatlari (yangi ekin yerlari ochish uchun) aniqlangan rejasi 29 479,4 mln.so‘m bo‘lib, haqiqatda 15 717,5 mln.so‘mga, rejaga nisbatan 13 761,9 mln.so‘mga (46,7%) kam bajarildi;

4-guruh xarajatlari (boshqa xarajatlar) aniqlangan rejasi 26 606,9 mln.so‘m bo‘lib, haqiqatda 25 802,7 mln.so‘mga, rejaga nisbatan 804,3 mln.so‘mga (3,0%) kam bajarildi.

2021-yilning 12-oyligida yuqori budjetdan tuman mahalliy budjetiga 2 723,3 mln.so‘m ijtimoiy transfert hamda 22 327,0 mln.so‘m budjetlararo o‘zaro hisob-kitob ajratildi. Buning natijasida mahalliy budjetdan moliyalashtiriladigan birinchi darajali to‘lovlarni har oyning 20 sanasiga qadar, jumladan oylik ish haqining 2 yarmini kelgusi oyning birinchi 5 ish kunida to‘liq moliyalashtirilishi ta‘minlandi.

Bundan tashqari 2021-yilning 12-oyligi davomida aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida tumandagi kam ta‘minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam to‘lovlari to‘lash uchun 9 612,9 mln.so‘m moliyalashtirilib berilishi ta‘minlandi.

Shuningdek, 2021-yil davomida tuman mahalliy budjetida shakllangan

qo‘shimcha manbalardan budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga 1 859,4 mln.so‘m ajratildi. Ushbu tadbirda g‘olib bo‘lgan 2 ta takliflar uchun 1 280,0 mln.so‘m moliyalashtirilishi ta‘minlandi. “Ayollar daftari” jamg‘armasiga 894,0 mln.so‘m, “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga 958,0 mln.so‘m ajratilishi ta‘minlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalliy budgetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 29-iyundagi 445-sonli qarori bilan tuman moliya bo‘limi va tuman soliq inspeksiyasi tomondan ishchi guruhi tuzilib, hozirgi kunda qo‘shimcha daromadlarni aniqlash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Tuproqqal’a tumanida soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish hisobiga tuman mahalliy budgetiga 2021-yilning 12-oyligida 124,3 mln.so‘m qo‘shimcha manbalar aniqlandi hamda soliq bazaziga tortildi.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, Xalq deputatlari Tuproqqal’a tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuproqqal’a tumani hokimligi moliya bo‘limi mudiri B.Atabaevning tuman mahalliy budgetining 2021-yil 12 oylik ijrosi to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i (S.Sultonov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (I.Sultonov) va tuman moliya bo‘limi (B.Atabaev) bilan birgalikda tuman mahalliy budgeti daromadlar qismini soliq turlari bo‘yicha belgilangan rejalarini oshirib bajarishni ta‘minlasin.

3. Tumani hokimligi moliya bo‘limi mudiri (B.Atabaev)ga:

budgetdan mablag‘ oluvchilarning budgetdan mablag‘ bilan ta‘minlanish asoslari mavjudligini muntazam tahlil qilib borish hamda budget mablag‘laridan saqlanish asoslari mavjud bo‘lmagan hamda ajratilgan budget mablag‘larining natijadorligiga erishilmayotgan budget muassasalarini qisqartirish yuzasidan tuman hokimligiga va tegishli tuman bo‘limlariga muntazam ravishda taklif kiritish;

xalq deputatlari tuman Kengashiga mahalliy budgetning ijrosi to‘g‘risida har chorakda axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda budget daromadlarining tasdiqlangan ko‘rsatkichlari bajarilishini tahminlasinlar, soliq solish bazasi kengaytirilishi va moliyaviy salohiyati mustahkamlanishi yuzasidan zaruriy chora-

tadbirlar ko‘rsinlar, budget mablag‘laridan maqsadli foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatsinlar.

5. Tuman hokimligi matbuot kotibi (F.Masharipov) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishini tahminlasin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i S.Sultonov hamda xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budgetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish” masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi I.Qalandarov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi



A.Салаев